



Tasviriy san'atda ranglar va ruhiyat:

Ranglar qanday qo'llanilishi va ularning emotsional ta'siri

To'liyeva Ruxsora

Urganch davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at

va muhandislik grafikasi yo'nalishi talabasi

Elektron pochta: tolievaruxsora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'atda ranglarning qo'llanilishi va ularning inson ongiga emotsional ta'siri o'rganiladi. Ranglar tasviriy san'atda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kuzatuvchilar ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, ranglarning psixologik aspektlari, ularning kayfiyat, his-tuyg'ular va hissiyotga ta'siri bilan birga ranglarning ramziy ma'nolari ko'rib chiqiladi.

Maqola ranglar va ruhiyat o'rtasidagi bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: emotsional ta'sir, hissiyotlar, psixologiya, ramz, ruhiyat, kombinatsiya.

Kirish: Ranglar insoniyat hayotidagi ajralmas qismlardan biri bo'lib, ular bizning kayfiyatimiz, holatimiz va his-tuyg'ularimizni shakllanishida muhim rolga o'ynaydi. Tasviriy san'atda ranglarning qay tarzda qo'llanilishi ya'ni ishlatilishi har bir chizilgan asar yoki surat mazmun-mohiyatini kuzatuvchilar ongiga san'atning estetik va psixologik jihatlarini ochib beruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, ranglar orqali san'atkor o'z fikrlari, kayfiyati yoki ijtimoiy voqea-hodisalarni tomoshabinga yetkazib berishi hamda ularning hissiyotlarini uyg'otishi mumkin. Ijodkor o'z asarida ranglarni qay tarzda qo'llashi



yo ijodiy-hayoliy usulda rasm tasvirlash qobiliyati bilan kuzatuvchilar eti'borini jalb etadi. Borliqdagi ranglar nafaqat san'at asarlari orqali balki, kundalik hayotimizdagi biz ko'rib turgan narsalar orqali ham bizga ta'sir o'tkaza oladi.

Hayotimizda biz foydalanadigan buyumlar, shaxsiy jihozlar, mashina, telefon va shunga o'xshash narsalarni ranggi biz uchun katta ahamiyatga ega sanaladi.

Adabiyot tahlili: Rang nazariyasi va psixologiyasining kesishishi turli sohalarga, jumladan, san'at, dizayn va marketing yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadigan yangi tadqiqot sohasidir. Bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ranglar o'ziga xos hissiy reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa san'atni idrok etish va tushunishni shakllantiradi. Gyote va Kandinskiy kabi olimlarning asosiy ishlari ranglarning inson ruhiyatiga ta'sirini etishini o'rganadi. Boshqa tomondan olib qaraydigan bo'lsak, yana bir tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ranglar turli xil hissiy ta'sir o'tkazishga ega hisoblanadi. Misol uchun, issiq ranglar (qizil va sariq kabi) ko'pincha iliqlik, hayajon va shoshilinchlik hissi bilan bog'liq bo'lsa, sovuq ranglar (ko'k va yashil kabi) hotirjamlik va osoyishtalikni keltirib chiqaradi.¹

Angela Raytning ranglar va hissiyotning bog'liqligi haqidagi kitobida ranglar kombinatsiyalari odamlarning ranglarga bo'lgan hissiy reaksiyalariga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Rayt nazariyasini tahlil qiladigan bo'lsak, unda ranglarning turli kombinatsiyalari ya'ni, bir rangning boshqasi bilan aralashmalari haqida ma'lumotlar berilgan. Yozuvchi har bir tabiiy rang boshqa rang bilan uyg'unlashishi, ranglarni to'rtta guruhga ajratish mumkinligi va ularning psixologik ta'siri universalligini aytib o'tgan. Rang kombinatsiyasi deganda, bir rangning boshqa rang bilan kirishib ketishi ya'ni aralashishi tushuniladi va bu orqali turli yangi ranglar hosil bo'ladi. Aynan shu sababli tasviriy san'at asarlarini chizib yakunlash jarayoni uzoq muddatga cho'zilishi mumkin.²

¹ "Rang haqida fan" muallifi Gyote

² "Rang psixologiyasi" (Psychology of color) muallifi Angela Rayt.



Patti Mollikaning rang nazariyasi haqidagi kitobi ranglarni qanday qo'llashni o'rganishga qaratilgan. Misol uchun, ko'k – bu rang sovuq rang bo'lsa ham tinchlik va xavfsizlik hissini uyg'otadi. Ko'k rangdan ko'p foydalanib ishlangan asarlar insonga sirli bo'lib tuyuladi. Sariq – rang esa energiya, shaddodlik va quvonchni ifodalaydi. U ba'zida e'tiborni jalb qilish, va o'ziga tortish hissini yaratadi. Shu bilan birga, sariq rang atrofdagi insonlarga iliqlik baxsh etadi. Shuningdek, tasviriy san'atdagi 3ta aniq rangdan yana bittasi bu qizil rang hisoblanadi. Qizil – bu rang ko'pincha, kuchli hissiyotlarni, ehtirosni, va sevgi-muhabbat tuyg'ularini ifodalaydi. Tasviriy san'atda qizil rang yordamida xarakterning kuchli emotsional holati aks ettirilsa, psixologiyada bu rang bilan shiddat, jo'shqinlikni aks ettiriladi. Rangtasvirda ko'p foydalaniladigan yana bitta rang bu yashil bo'lib, u sariq va ko'k ranglarining kombinatsiyasidan hosil bo'ladi. Yashil rang asosan, tabiat va yangilanish bilan bog'liq bo'lgan rang hisoblanadi. Yashil rangda ishlangan asarlar odamni tetiklantiradi, yana bir ajoyib Tomoni shundaki, ushbu rang insonning borliqni ko'ra olish xususiyatini yaxshilaydi.

Patti Mollikaning rang nazariyasi kitobi ranglarning bir-biriga ta'siri va ularning psixologiya bilan bog'lanishi, rasm tasvirlashda bosqichma-bosqich ishlash texnikasi haqida ma'lumot beradi, bu esa san'atkorlarga ranglarni anglash va qo'llashda yordam beradi.³

Metodologiya: Tasviriy san'atda ranglar o'zaro bog'liqlik asosida ishlanadi. Tabiatda mavjud ranglar qog'ozga tushirilganda biroz o'zgarishi, boshqa shakli bilan almashinishi yoki bir rangni boshqa rang bilan tasvirlanishi ham mumkin. Rassom manzara ishlaganda yaqinroq ko'ringan tabiatni tiniqroq va aniq ranglarda chiqaradi. Bu manzaraning turli masofalarda joylashgan narsalar (daraxt, o'simlik, suv, tog', tuproqli joy va hakazolar)dan tashkil topganligini anglatadi. Shuningdek, uzoq masofada joylashgan joylar biroz xira yoki boshqa ranglar jamlanmasi orqali tasvirlanadi. Ushbu texnika rassomning qobiliyati, uning

³ “Rang nazariyasi: rang bo'yicha muhim qo'llanma”(Color Theory: An Essential Guide to Color) muallifi Patti Mollika.



ranglardan foydalanishini, ko‘rgan narsalariga nisbatan rangni to‘g‘ri tanlay olishini bildiradi. Boshqa tomondan tahlil qiladigan bo‘lsak, bunday tartibda ishlangan suratlar kuzatuvchilar eti‘borini tortishi va o‘ylantirishi mumkin. Inson psixologiyasi noodatiy uslub, rang va ko‘rinishdagi rasmlarni ko‘rganida unda san‘at asariga qiziqish paydo bo‘lishi mumkin.

Ijodkorlar asarlarini yaratishda ranglar palitrasini ehtiyotkorlik bilan tanlaydilar. Buning sababi, har bir rang muayyan hissiyotlar va kayfiyatlarni ifodalashga yordam beradi. Masalan, issiq ranglar (qizil, sariq) energiya va hayajon hislarini uyg‘otsa, sovuq ranglar (ko‘k, yashil) esa tinchlik va xotirjamlikni tasvirlaydi.

Muhokama: Ranglarning emotsional ta’siri turli madaniyatlarda turlicha farq qilishi mumkin. Misol uchun, sariq rang G‘arb mamlakatlari madaniyatida farovonlik va baxt ramzi sifatida ifodalansa Sharq mamlakatlari madaniyatida ehtiyotkorlikni, hattoki xavfni ifodalashi ham mumkin. Ushbu tadqiqot shuni anglatadiki, ranglarning emotsional reaksiyalari individual madaniy tajribaga ega bo‘la oladi (Eliot,2015).⁴

Ranglarning hissiy reaksiyasida qora rang umidsizlik, qo‘rquv kabi salbiy hissiy holatlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Boshqa tadqiqotlarda bu rang insonlarda bezovtalik hisini uyg‘otadi (Birren, “Color in Your World”).⁵

Xulosa: Ranglar san‘at asarlarini estetik jihatini shakllantirishda va kuzatuvchilar ongiga ta’sir qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday ranglarning aralashmasi tufayli ranglar va uning turlari, ramziy ma’nolari va psixologik ta’siri haqida ma’lumot beradi. Shu tariqa, ranglar va ruhiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish san’at jarayonini chuqurlashtiradi. Ranglarning kuchi orqali tasviriy san’at asarlarini kuzatuvchilarda his-tuyg‘ularni uyg‘otishi va xotiralarida iz qoldirishi mumkin.

⁴ “Rang va psixologik faoliyat: nazariy va empirik ishlarni ko‘rib chiqish” muallifi Eliot, A.J.

⁵ “Color in Your World” kitobi muallifi Birren. <https://www.amazon.com/Color-Your-World-Birren>



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Rang psixologiyasi” (Psychology of color) muallifi Angela Rayt.
2. “Rang nazariyasi: rang bo‘yicha muhim qo‘llanma”(Color Theory: An Essential Guide to Color) muallifi Patti Mollika.
3. “Rang haqida fan” muallifi Gyote.
4. “Rang va psixologik faoliyat: nazariy va empirik ishlarni ko‘rib chiqish” muallifi Eliot, A.J. (2015). 6, 368
5. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2015.00368>
6. “Color in Your World” kitobi muallifi Birren.
7. <https://www.amazon.com/Color-Your-World-Birren>